XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-avgust VI-61-91-5-210-K/24 G‘ozg‘on shahar

G‘ozg‘on shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda tasdiqlangan 03/4.3-253-sonli "Yo'l xaritasi" hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. G‘ozg‘on shahrining ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlarini amalga oshirish bo`yicha doimiy ishlovchi komissiyasining G`ozg`on shahrining Konimex tumani, Nurota tumani va Navbahor tumanlari hamda Buxoro viloyati bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

2. Mazkur qaror bilan G‘ozg‘on shahrining ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash masalalarini ko’rib chiqish bo’yicha hududiy komissiyasi tomonidan taqdim etilgan:

G`ozg`on shahrining Konimex tumani, Nurota tumani va Navbahor tumanlari hamda Buxoro viloyati bilan ma'muriy-hududiy birliklar chegarasining tavsifi **l-ilovaga** va kartografik chizmasi **2-ilovaga** muvofiq ma'qullansin.

3. Ushbu qaror Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashiga yuborilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (N.Zoyirov) hamda xalq deputatlari shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo'jaligi masalalari va aholiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha doimiy komissiya raisi (S.Temirov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi  KUSHAKOV FURKAT BERDIYEVICH

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 21-avgustdagi
VI-61-91-5-210-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Navoiy viloyati G‘ozg‘on shahrining chegara
TAVSIFI

Dala tuproq yo`lining sharqiy tomoni, G‘ozg‘on shahri, Konimex va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°49'41.480", sharqiy uzoqlik koordinatalari 65°36'25.278").*

A dan B gacha Nurota tumani yerlari bilan 1-6 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali umumiy janubiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 11431 metr masofani o`tib, dala tuproq yo`lining janubiy qismida joylashgan 2- nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'45.748", sharqiy uzoqlik 65°35'40.439")*

2-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq bo`ylab umumiy janubiy-janubiy-g`arbiy yo`nalishda 7218 metr masofada avtomobil yo`liga tutashib, keyin dala tuproq yo`lining g`arbiy tomoni bo`ylab umumiy janubiy-g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2104 metr masofada dala tuproq yo`lida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39'27.163", sharqiy uzoqlik 65°33'28.301")*

3-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo`lining janubiy tomoni bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda 1105 metr masofani o`tib, keyin quruq chegara chiziq bo`ylab umumiy janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1815 metr masofani o`tib, 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'23.142", sharqiy uzoqlik 65°34'55.298")*

4-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chiziq orqali umumiy janubiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 12283 metr masofani o`tib tog` cho`qqisida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'18.195", sharqiy uzoqlik 65°33'10.187")*

5-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali janubiy-g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 10807 metr masofani o`tib, G`ozg`on shahri, Nurota va Navbahor tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25.246", sharqiy uzoqlik 65°27'46.313")*

B dan D gacha Navbahor tumani yerlari bilan 6-7 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

6-nuqtadan chegara chizig‘i quruq chegara chizig‘i orqali umumiy g`arbiy-shimoliy-g`arbiy yo`nalishda 9351 metr masofani o‘tib, G‘ozg‘on shahri , Navbahor va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'44.575", sharqiy uzoqlik 65°22'00.404").*

D dan E gacha Buxoro viloyati yerlari bilan 7-8 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

7-nuqtadan chegara quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 704 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 11340 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 5548 metr masofani o‘tadi, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 1883 metr masofani o‘tib, Buxoro viloyati, G`ozg`on shahri va Konimex tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°40'48.550", sharqiy uzoqlik 65°23'05.571").*

E dan A gacha Konimex tumani yerlari bilan 8-1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

8-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo`ylab shimoliy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3774 metr masofani o`tib, dala tuproq yo`lining janubiy tomonida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42'43.010", sharqiy uzoqlik 65°23'29.554")*

9-nuqtadan chegara chizig‘i quruq soy bo`ylab shimoliy-shimoliy-g`arbiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 631 metr masofani o`tib, dala tuproq yo`lining sharqiy tomonida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43'00.375", sharqiy uzoqlik 65°23'19.136")*

10-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo`lining sharqiy tomonidan shimoliy-sharqiy yo`nalishda 3695 metr masofani o`tib, dala tuproq yo`lining janub tomonida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44'44.027", sharqiy uzoqlik 65°24'31.006")*

11-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo`lining g`arbiy tomoni bo`ylab shimoliy-g`arbiy yo`nalishda 135 metr masofani o`tib, keyin quruq chegara chiziq bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda 9944 metr masofani o`tib, avtomobil y`olining shimoliy tomonida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'17.180", sharqiy uzoqlik 65°28'12.767")*

12-nuqtadan chegara chizig‘i to`g`ri chegara chiziq bo`ylab shimoliy-sharqiy yo`nalishda 4626 metr masofani o`tib, dala yo`lining janubiy tomonida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'24.937", sharqiy uzoqlik 65°29'54.171")*

13-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo`lining janub tomoni bo`ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2832 metr masofani o`tib, 2-dala tuproq yo`li bilan tutashgan jo`yda, dala tuproq yo`lining shimoliy tomonida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°51'02.924", sharqiy uzoqlik 65°31'46.997")*

14-nuqtadan chegara chizig‘i to`g`ri chegara chiziq bo`ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo`nalishda 6991 metr masofani o`tib, dala tuproq yo`lining sharqiy tomonida, G`ozg`on shahri, Konimex va Nurota tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joyda 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°49'41.480", sharqiy uzoqlik 65°36'25.278")*

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2024-yil 21-avgustdagi
VI-61-91-5-210-K/24 -son qaroriga
2-ilova

